5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi qarori / PK,-4433-son /2019 yil 30 avgust



OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA "MAKTABGACHA TA'LIMDA SOG'LOM OVQATLANTIRISH TEXNOLOGIYASI" FANINING MASOFAVIY (ZOOM) O'QITISH MEXANIZMLARI

Mualliflar: Hakimova Shohida Jo'rayevna¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti¹,
Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchi¹

E-mail: hakimova_shohida@mail.ru¹

DOI: <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.26212913>

ANOTATSIYA

Maqolada Xalqaro Nordik universiteti sirtqi guruh talabalariga "Maktabgacha sog'lom ovqatlantirishni tashkillashtirish texnologiyasi" fanini masofaviy ta'lim shaklida o'qitishda qo'llanilgan innovatsion usullar va ularning amaliy imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, oliy ta'limda masofaviy o'qitish, masofaviy o'qitish mexanizmlari, onlayn dasturlar, onlayn ta'lim, sog'lom ovqatlantirish, ratsion, sanitariya

KIRISH

Masofaviy ta'lim bu universitet yoki biror ta'lim dargohida yuzma-yuz bo'lib, dars o'tish talab qilmaydigan o'rganish usuli tushuniladi. Barcha o'quv materiallari va ma'ruzalar onlayn tarzda yetkaziladi. Talabalar kurs olayotganda o'z uylarida turib darslarda bemalol ishtirok etishlari yoki bo'lmasa keyinchalik dars jarayonlarini kuzatishlari mumkin. Masofaviy ta'limni sinxron tarzda yoki asinxron olishlari mumkin.

Sinxron masofaviy ta'lim ma'ruzalarni real vaqt rejimida o'tkazishni anglatadi. Tabalaringiz bilan jonli muloqotda bo'lasiz. Ushbu o'quv modelida zoom va boshqa platformalarga o'xshash texnologiyalarga ehtiyoj seziladi.

Sinxron masofaviy ta'lim o'qituvchilar va talabalar bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkonini beradi. Biroq, buning ba'zi texnik hamda elektr va internet tezligi bilan bog'liq muammolari kuzatiladi.

Asinxron masofaviy ta'limda talabalar o'quv dasturini o'zining xoxlagan kun tartibi asosida ishlashi mumkin.

Masofaviy ta'lim ko'plab talabalar va muassasalar uchun umumiy tanlovga aylanib bormoqda. Bu ayniqsa pandemiya davrida masofaviy ta'lim orqali o'qitishning imkoniyatlari kengligi hamda qulayligi haqida o'ylab ko'rishga turtki bo'ldi. Biz quyidagi maqola orqali masofaviy ta'limda turli innovatsiyalardan foydalanish yo'l-yo'riqlari

haqida yoritib, talabalarga o'qib-o'rganishi oson va qulay hamda qiziqarli tarzda ma'lumotlar yetkazilishiga harakat qildik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuni o'rganish davomida bir qator me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, tahlil etildi va ular ushbu maqolaning nazariy asoslarini tashkil etdi: Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini^[1] "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi. Bunga ko'ra, "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"^[2]gi nizom tasdiqlandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabaning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish haqida so'z boradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda maktabgacha ta'lim sohasini ham rivojlantirishga, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar quyidagi qonun va qarorlar asosida ishlab chiqarildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"^[3]gi qonuni asosida :

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-son - "[Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)"^[4]gi,

-2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son "[Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)"^[5]gi

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyuldagi 626-son "[Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida](#)"^[6]gi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son

³ Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.11.2020 yildagi PQ-4887-son

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.05.2021 yildagi PQ-5124-son

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.07.2019 yildagi 626-son

yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish chorolari bo'yicha sanitariya qoidalari va normalari ^[7]ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid ishlab chiqilgan sanitariya qoidalari va normalari 5-bob 83 banddan iborat bo'lib uning maqsadi:

MTTlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olishdir.

Buning natijasida qisqa muddatda maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy qismi MTTlarga qamrab olindi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni to'g'ri va sog'lom ovqatlantirish masalasi ham muhim hisoblanadi. Bolalarning bog'cha yoshidan to'g'ri ovqatlanishga odatlanishi uarning fiziologik va anatomik holatiga hamda ulg'ayganda noto'g'ri ovqatlanish oqibatida yuzaga keladigan kasalliklar oldini olish imkonini beradi.


Oliy ta'lim muassasalarida "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fanini innovatsion o'qitish usullari nafaqat auditoriyada balki masofaviy ta'limda ham ilg'or texnologiyalarni qo'llash yoki eng so'nggi ta'lim tendentsiyalaridan doimo xabardor bo'lgan holatda ta'lim usullaridan foydalanish orqali darslarni tashkil etish samarali usullardan biridir. Quyidagi maqolada ushbu fanni masofaviy tarzda qanday o'qitish orqali samaraga erishish mumkinligi haqida boradi.

Natija: Tarbiyalanuvchilar ratsioni foydali, mutanosib bo'lishi hamda unda umumiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining yoshlari inobatga olingan holda tuzilishi lozim. MTTlarda sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish uchun xavfsiz, to'yimli va sog'lom oziq-ovqat mahsulotlarining doimiy ta'minotini ko'zda tutuvchi standartlarga uzluksiz ravishda amal qilish kerak. Bu boradagi ishlarni takomillashtirish, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oshxonalarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilish, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlar samaradorligini oshirish, ovqat tayyorlash uchun tarbiyachilar, mas'ul xodimlar, hamshiralar, oshpazlar va ombor mudirlarining bilimlarini mustahkamlash tizim mas'ullarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi kasb egalarining asosiy ish joylaridan ajralmagan holda oily ta'limda o'qish imkoniyatlari mavjuddir. Bugungi kunda bir qancha oliy ta'lim muassasalari qatorida Xalqaro Nordik universitetida ham sirtqi ta'lim guruhlar mavjud bo'lib, "Maktabgacha ta'lim" yo'lnalishi talabalariga "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fani ham masofaviy o'qitish tashkillashtirilgan.


Quyida "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fanini oliy ta'lim muassasalari talabalariga masofaviy o'qitishning zoom platformasi orqali qo'llanilgan mexanizmini tahlil qilamiz:

⁷ O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i, 17.07.2021 yildagi 0016-21-son


Auditoridada bo'ladimi, masofaviy o'qitish bo'ladimi, bu turli xil o'qitish usullari hozirgi kunda talabalarni o'qitishning turli xil yondashuvlarini topib, o'qishga ko'proq jalb qilishlariga imkon berishdir. Masofaviy darslarni o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ushbu samarali onlayn o'qitish usullarini quyida amaliy misollar vositasida ko'rib chiqamiz:



1. Taqdimotlar: Taqdimotlar, onlayn o'qitishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu uslub o'qituvchining darslikdan ma'lumot berishdan ko'ra ko'pchiligi vizual o'quvchilar bo'lgan talabalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Eng muhimi, taqdimotlar sizga vizual tasvirlarni (ppt, canva, google slides va h.k.) o'z ichiga olish imkonini beradi, bu esa darsni yanada qiziqarli qilish bilan birga murakkab ma'lumot va ma'lumotlarni yetkazish va tushunishni osonlashtiradi. Misol uchun onlayn dasturlar; ppt, canva, google slides.



2. Onlayn doskalar: Onlayn doskalar o'qituvchilar va talabalar o'rtasida bo'ladigan aktiv bog'liqlikni yaxshi ta'minlay oladigan usullardan biridir. Undan turli diagrammalar va masalalar yechishda, oldindan tayyorlangan shablonlar, eskiz, matn terish vah. funksiyalari mavjud. An'anaviy doskalardan farqli o'laroq, ular sizga yaratilgan tarkibni raqamlashtirishga ham imkon beradi, va ularni qayta ishlash imkonini yaratadi. Shuningdek, siz real vaqt rejimida o'qituvchilar bilan bir xil vaqtda hamkorlik qilishingiz mumkin, bu esa topshiriqlarni bajarish, darslar jarayonidada aqliy hujum, aql xaritasini tuzish, viktorina kabi interfaol mashqlarni bajarish, uy vazifalarini ko'rib chiqish va fikr-mulohaza qoldirish imkonini beradigan dasturlardan biridir. Masalan; mindmeister , mind on map va online white board.



MindOnMap

• MindOnMap - bu aql xaritasining eng so'nggi, ammo eng qiziqarli usuli.



Mindmeister

• MindMeister - bu o'z foydalanuvchilariga bulut orqali o'z fikrlarini tasavvur qilish, baham ko'rish va taqdim etish imkonini beruvchi onlayn aql xaritasi ilovasi.




Online WhiteBoard

• Onlayn doska - bu o'qituvchilar va talabalar Internet orqali real vaqt rejimida yozishlari va talabalar bilan muloqot qilishlari mumkin bo'lgan o'quv maydoni.

3. Jonli onlayn darslar (Zoom): Texnologiya talabalar bilan bir xonada bo'lmasangiz ham, ma'ruzalarni onlayn o'qishni osonlashtirdi, bu yuzma-yuz muloqotning ko'plab elementlarini takrorlaydi. Video konferensiya aloqa vositalaridan foydalanib, siz butun dunyo bo'ylab talabalar bilan bog'lanib, dars o'tishingiz mumkin. Ma'ruzalar odatda talabalarni passiv faoliyatga olib kelsa, onlayn doskani o'z ichiga olgan holda, siz darslarni yanada qiziqarli tashkillashtirishingiz mumkin. Misol tariqasida; Quizlet.com / Kahoot.com / WordWall.net. Bu dasturlar orqali o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash bilan birga, talabalarining bilim darajasini shu zahotiyoyq aniqlab tahlil qilib berishi, talaba tomonidan ijobiy qabul qilinadi.




4. Loyiha asosida o'qitish: Bu usulda talabalar kurs materialiga mos keladigan loyiha ustida ishlaydilar. Ular kursda o'rganilgan tushunchalarni real muammoni hal qilish uchun qo'llashlari kutiladi. Bu usul, ayniqsa, ijodkorlik va innovatsiyani talab qiladigan fanlar uchun foydalidir. Quyidagi misolda talabalar turli online photo yoki video dasturlar orqali guruh asosida o'z loyihalarini tayyorlashlari mumkin: paint / canva yoki <https://padlet.com/> kabilar.



MUHOKAMA

Maktabgacha ta'lim sirtqi guruhlarda ta'lim olayotgan talabalarning dastlabki fanga oid bilimlarini hamda darslar davomida olgan bilimlarini Kahoot.com, WordWall dasturi orqali tahlil qilib chiqildi. Bunga ko'ra talabalarni dasturdan foydalana olish imkoniyatlari, hamda bilim darajalari o'rganildi.



Natijaga ko`ra, talabalar Wordwall dasturida test ishlashlari qulay hamda testni qayta tahlil qilish imkoniyati borligi sababli, darsdan tashqari holatda ham takror ishlay olganliklari uchun yaxshi natijalarga erisha olishdi. Faqat an'anaviy ma'ruza usulidan foydalangandan ko`ra, interaktiv usulda yuqoridagi dasturlardan foydalanib, onlayn darslar tashkillashtirilganda bir nazorat bilan ikkinchi nazorat oralig'ida talabalar bilimining sezilarli darajada o`shishi kuzatildi.

Bugungi kunda, Think Impact[8] da aytilishicha, har qanday maktablar, o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilarni qiziqtirish va ko'proq jalb qilish uchun yangi normada innovatsion o'qitish strategiyalarini sinab ko'rishdi. Raqamli dasturlar esa ularga talabalarning ongiga kirishga yordam berdi va talabalarga darslarga yaxshiroq kirish imkonini berdi. Natijada:

2021 yilda barcha amerikalik talabalarning 57% raqamli vositalariga ega bo'ldi.

AQSh maktablarining 75 foizi to'liq virtual o'tishni rejalashtirgan bo'lib, ta'lim platformalari talabalar qurilmasidan foydalanishning 40 foizini egalladi.

Ta'lim maqsadlarida masofaviy boshqaruv ilovalaridan foydalanish 87 foizga oshdi. AQSHdagi maktab va universitetlarning 80 foizi talabalar uchun qo'shimcha texnologik vositalarni sotib olgan yoki sotib olishga intilgan va universitetlarning 98 foizida darslar onlayn o'qitilgan.

Ushbu statistika talablarning o'qitish va o'rganish usullarida katta o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Shunday qilib, ta'limdagi masofaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish vaqti kelganligini anglash mumkin.

XULOSA

o`rnida shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya butun pandemiya davrida o'qituvchilar va talabalarni bog'lash imkonini yaratib, o'qituvchilarga o'z bilimlarini

⁸ Source: [Think Impact](#)

xuddi bir sinfda bo'lgandek berishga imkon berdi. Unicef ma'lumotlariga ko'ra^[9], dunyo bo'ylab ro'yxatga olingan talabalarning taxminan 91 foizi COVID-19 tarqalishini to'xtatishga yordam berish maqsadida masofaviy ta'limga o'tishdi. Lekin vaziyat ta'lim tizimlari o'rtasidagi elektr energiyasi, qurilmalar, resurslar va internetdan foydalanish imkoniyati yo'qligi kabi ko'plab bo'shliqlarni ochib berishga ham imkoniyat yaratdi desak bo'ladi va bu nomutanosibliklarni innovatsion yechimlar bilan bartaraf etish choralari ko'rishga olib keldi. Hozirga vaqtda masofaviy ta'lim butun dunyo bo'ylab ko'plab o'qituvchilar va talabalar uchun yangi odatiy holga aylanayotganligi, bu talabalar va o'qituvchilar uchun ham ancha qulayliklar yaratdi. Ta'lim sohasi shunchalik tez o'zgarimoqdaki, siz doimo zamonaviy texnologiyalarga moslashishingizga to'g'ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son
3. Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.11.2020 yildagi PQ-4887-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.05.2021 yildagi PQ-5124-son
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.07.2019 yildagi 626-son
7. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i, 17.07.2021 yildagi 0016-21-son
8. Source: Think Impact
9. <https://creately.com/blog/education/online-teaching-methods/>.

QO'SHIMCHA MATERIALLAR

10. Masofaviy ta'lim; <https://www.coursera.org/in/articles/distance-learning>
11. O'qituvchilar bilishi kerak bo'lgan asosiy onlayn ta'lim usullari | Maslahatlar bilan - Yaratgan. <https://creately.com/blog/education/online-teaching-methods/>
12. Onlayn o'qitishning samarali usullarining yakuniy ro'yxati. <https://bing.com/search?q=online+teaching+methods>
13. 2024 yil uchun 15 ta innovatsion o'qitish usullari (qo'llanma + misollar) - AhaSlides. <https://ahaslides.com/blog/15-innovative-teaching-methods/>.
14. Onlayn o'qitishning 9 ta strategiyasi - Pearson. <https://www.pearson.com/en-us/higher-education/insights-and-events/teaching-and-learning-blog/2020/03/9-strategies-for-effective-online-teaching.html>

⁹<https://creately.com/blog/education/online-teaching-methods/>.



TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Mualliflar: Soatova Zarnigor Asatulla qizi¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti¹, Magistratura talabasi¹

E-mail: zarnigorsoatova3@gmail.com¹

DOI: <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.26212070>

ANOTATSIYA

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini hakllantirishga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kredit modul, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik, kreativ fikrlash

KIRISH

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va innovatsiyalarga qodir bo'lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Bu muammoni faqat o'qituvchidan talabaga tayyor shaklda o'tkazish orqali hal qilish qiyin. Talabani passiv bilim iste'molchisidan muammoni shakllantirish, uni yechish yo'llarini tahlil qilish, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol bilim yaratuvchiga o'tkazish zarur. Hozirgi oliy ta'lim islohoti o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan uzviy bog'liqdir. Shu munosabat bilan shuni e'tirof etish kerakki, talaba mustaqil ishi (TMI) nafaqat o'quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak. Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotlarda (L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, B.P.Esipov, V.A.Kozakov, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, N.A.Polovnikova, P.I.Pidkasisty va boshqalar) umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy va faoliyati, bu faoliyatning uslubiy, mantiqiy va boshqa jihatlari ko'rib chiqiladi, o'rganilayotgan muammoning ko'p jihatlari, ayniqsa, an'anaviy didaktik rejada ochib beriladi.¹⁰

1. ¹⁰ Olimov Q.T. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. T.; 2017

Shu bilan birga, talabalarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim bo'lib, mustaqil bilish faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi.

ASOSIY QISM

“Mustaqil ish” tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, talabalarning mustaqil ishi muammolari bo'yicha sezilarli darajada pedagogik tadqiqotlar olib borilishiga qaramay, ushbu didaktik jarayonning mohiyati va mazmuniga to'laqonli yondashuv mavjud emas. Bu tushuncha quyidagicha ma'nolarni ifodalaydi:

- Pedagogning bevosita ishtirokisiz talaba topshiriqlarni o'zi bajarishi kerak;
- Fikrlash operatsiyalariga, o'quv materialiga o'z-o'zini yo'naltirish asosida talabaning mustaqil bo'lishi talab qilinadi;
- Topshiriqni bajarilish jarayoni qat'iy tartibga solinmagan, topshiriqlarning bajarilish usullari erkin tanlanilishi.

Mustaqil ish - mustaqillik kabi shaxsning muhim xususiyatini shakllantirish vositasi, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakli bo'lib, u faollik, fikr mustaqilligi, ijodkorlik, qat'iyat va topshiriqni bajarishda tashabbuskorlikni talab qiladi. Talabalarning mustaqil ishlarining turli bosqichlarida ularning mustaqilligi oddiy takrorlash, taqlid qilishdan tortib, ijodkorlikka qadar turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Bajarilgan vazifalarning murakkabligi ortib borishi bilan u paydo bo'ladi, rivojlanadi va murakkablashadi. Talabaning turli fanlar bo'yicha mustaqil ishining samaradorligi, avvalambor, uning shaxsiy fazilatlarini, intizomi, motivatsion munosabatlari, xotira, diqqat, irodaviy sifatlar kabi aqliy sifatlarini va boshqalarga bog'liq bo'lsa, unumli mustaqil ishning asosiy shartlaridan biri uning shakllanishi va rivojlanishi hisoblanadi. Talabalar mustaqil ishining maqsadi - turli manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishini ko'zda tutiadi. Mustaqil ishlarga darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, fanlar bo'yicha klassik mualliflarining ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar to'plamlari va ilmiy ma'ruzalar, ixtisoslashtirilgan jurnallardagi ilmiy maqolalar, badiiy adabiyotlar bilan ishlash kiradi. So'nggi paytlarda mustaqil ishlarda elektron shakldagi manbalar (Internet tizimi, kompyuter dasturlari va elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar) bilan ishlash katta o'rin egalladi. Talabalarning mustaqil ishlariga insholar, izohlar, tezislar yozish kiradi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda darslik va o'quv qo'llanma bilan ishlash ham tizimli bo'lishi kerak. Bu jarayon uch bosqichdan iborat: Birinchi bosqichda talaba darslik yoki o'quv qo'llanma bilan tanishadi, mualliflarning ism-shariflariga, izohlarga e'tibor beradi, mazmunini ko'rib chiqadi, mundarija, diagramma, chizmalarni ko'zdan kechiradi, o'zi qiziqqan matnga murojaat qiladi. Ikkinchi bosqichda talaba darslikni birinchi sahifasidan to oxirgi sahifasigacha alohida varaqlarda majburiy yozuvlar bilan diqqat bilan o'qib chiqadi. Ushbu belgilar o'qilgan narsalarni asosiy va ikkilamchi, muhim va ahamiyatsiz, qiziqarli va qiziq bo'lmagan, hodisalarning ta'riflari va tavsiflarini, shuningdek, materialni

farqlashning boshqa mezonlaridan foydalangan holda farqlash imkonini beradi. Bunday holda, eslatmada manba sahifasi va uning nomi ko'rsatilishi shart. Uchinchi bosqichda kitobning qisqacha mazmuni amalga oshiriladi, eslatmalar asosida material so'zma-so'z yoziladi yoki uning ma'nosi bayon qilinadi, lekin har doim ko'chirma manbaning qaysi sahifasida olinganligi belgilanadi. Bu kelajakda kurs ishlari, ilmiy ishlar yozishda, plagiatdan qochish uchun tezis yozishda yordam beradi. Talabalarning faol mustaqil ishi faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo'lganda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. Eng kuchli rag'batlantiruvchi omil - bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdan iborat. Mustaqil ishlarni faollashtirishga yordam beradigan ichki omillarni quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Bajarilgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ishining natijalari ma'ruza kursida, uslubiy qo'llanmada, laboratoriya xonasida, nashrni tayyorlashda yoki boshqa usullarda qo'llanilishini bilsa, u holda topshiriqni bajarishga bo'lgan munosabat yaxshi tomonga sezilarli darajada o'zgaradi, bajarilayotgan ishlarning sifati oshadi. 2. Talabalarning ijodiy faoliyatda ishtiroki. Bu ma'lum bir bo'limda olib boriladigan tadqiqot, ishlab chiqish yoki uslubiy ishlarda ishtirok etish bo'lishi mumkin.

3. Muhim motivatsion omil - bu intensiv pedagogika bo'lib ta'lim jarayoniga faol usullarni, birinchi navbatda, innovatsion va tashkiliy-faol o'yinlarga asoslangan o'yin mashg'ulotlarini joriy qilishni o'z ichiga oladi. Bunday o'yinlarda faqat qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash emas, balki obyekt haqida bir tomonlama ma'lum bilimlardan ko'p tomonlama bilimga o'tish, uni yetakchi qarama-qarshiliklarni aniqlash bilan modellashtirish mavjud. Ushbu yondashuvdagi birinchi qadam jarayonni yoki vaziyatli o'rganish shakllari, shu jumladan kompyuterlardan foydalanadiganlardir.

4. O'quv fanlari bo'yicha olimpiadalarda, ilmiy tadqiqot yoki amaliy ishlar bo'yicha tanlovlarda qatnashish va hokazo.

5. Bilimlarni nazorat qilish uchun rag'batlantiruvchi omillardan foydalanish Bu omillar, ma'lum sharoitlarda, raqobatbardoshlikka intilishni keltirib chiqarishi mumkin, bu o'z-o'zidan talabaning o'zini o'zi takomillashtirish uchun kuchli motivatsion omil hisoblanadi.

XULOSA

Tezisdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy -siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Olimov Q.T. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. T.; 2017

2. Ziyomuhamedov B., Abdullayeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: Abu Ali Ibn Sino, 2018.
3. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi// Kasb-hunar ta'limi. 2018.16-25 betlar.
4. Komarova T.S. O'qitish metodikasi. - Moskva: Ma'rifat, 2019. 160 b.





ZAMONAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI YOSHLAR IJTIMOYI FAOLLIGIGA TA'SIRI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Mualliflar: Qodirov Najmiddin Ne'matovich ¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti ¹, Yoshlar ishlari va talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti boshlig'i ¹

E-mail: n.qodirov@nordicuniversity.org ¹

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5190-6852> ¹

DOI: <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.26172460>

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada internet va ommaviy axborot kommunikatsiyalari yoshlarning islohotlardagi faolligiga ko'rsatadigan obektiv ta'siri hamda jamiyatdagi transformatsion o'zgarishlarda kommunikativ texnologiyalar taraqqiyoti ommaviy kommunikatsiyalarning yoshlar auditoriyasiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Zero, bugungi kunda global tarmoq va uning vositachiligida shakllanib, takomillashib borayotgan zamonaviy internet ommaviy axborot vositalari an'anaviy matbuot turlarini iste'mol bozoridan chiqarib borishi davomida inson ongi, dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu ta'sir natijasi o'laroq insonlarning qadriyatlari ham o'zgarib borishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ommaviy axborot vositalarini yoshlarga ta'siri muammosini tadqiq etish va bugungi kundagi axborot oqimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mazkur jarayonning ijobiy jihatlaridan unumli foydalanish, salbiy jihatlaridan muhofazalanish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashni ilmiy asoslash zarurati tobora ortmoqda. Ayniqsa, bu borada, har qanday jamiyatning kelajak resursi bo'lgan yoshlarni bu jarayonlarda to'g'ri rivojlanishi yuzasidan amaliy takliflarni shakllantirish dolzarbdir.

Kalit so'zlar: transformatsion jarayonlar, axborot kommunikatsiyalari, kompyuter texnologiyalari, globallashuv, g'oyaviy tahdid, rasmiy va norasmiy saytlar, yoshlar, internet-OAV.

KIRISH

Taraqqiyotning yangi davrida jamiyatda kechayotgan transformatsion jarayonlar mavjud institutsional va ijtimoiy tizimlar faoliyatiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Axborot kommunikatsiyalari, kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi fuqarolik jamiyati axborotlashuvini sifat jihatdan yuksalishiga olib keldi. Bunday voqelik taraqqiyotdagi yangi bosqich – globallashuv va axborotlashgan jamiyat shakllanishi munosabati bilan vujudga keladigan ijtimoiy, iqtisodiy yo'nalishdagi muammolar mohiyati va mazmunini anglash zaruriyatini vujudga keltiradi.

TAHLIL VA MULOHAZALAR

Global kompyuter tarmog'ining jadal rivojlanishi, uning auditoriyasi tobora kengayib bormoqda. Bu tendentsiya dunyo miqyosida ko'zatilib, 1995-yilda jahonda internetdan foydalanuvchilar soni 10 million bo'lgan bo'lsa, 2005-yilga kelib ular soni 1 milliarddan oshdi va ushbu ko'rsatgichlar keyingi yillarda davomida jadal oshishda davom etmoqda. Global internet tarmog'idan foydalanuvchilarning soni 2010 yilda 1 mlrd. 966 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa. Bugunga kelib, internet 5,4 mlrd. kishining shaxslararo munosabatlardagi innovatsion axborot vositasi bo'lib, turli ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik vakillari munosabatlari, o'zaro aloqasida an'anaviy aloqa vositalarini ortda qoldirmoqda[20]. Bunday jadal o'sish natijasida global internet inson faoliyatida universal ijtimoiy kommunikatsiya rolini bajarmoqda[10, 107-b.].

Jahon internet tarmog'i shiddat bilan o'sib borayotgan foydalanuvchilari orqali dunyo hamjamiyatini qamrab borish davomida uning ma'lumotlar manbalarining hilma-xilligi hamda ushbu manbalarning ma'lumotlarini ishonchliligi, manbalarning maqsadlari nuqtai-nazaridan butkul bir-biridan farq qiluvchi sub'ektlardan iborat bo'lib bormoqda. Xususan, global tarmoqda axborot taqdim etuvchilar sifatida professional mutaxassislardan tashqari, turli soha vakillari, turli sohalar ekspertlari, malakali hisoblanmagan kommunikatorlar, maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar ham faol ishtirok etishi sababli axborotlar haqqoniy va ob'ektivligiga bo'lgan talablarga ko'p holatlarda amal qilinmasligiga guvoh bo'lamiz.

Axborot insonning dunyoni bilishi, tajribaga ega bo'lishdagi asosiy vositasidir. Mutaxassislar fikricha "Inson o'zini o'rab olgan olamni o'z his-tuyg'u organlari orqali qabul qilib oladi. Axborot – odamning tashqi dunyoga moslashuvi jarayonida undan olgan ma'nolarning ifodasidir. Haqiqiy hayot – haqiqiy axborot olish bilan bog'liqdir"[22, 27-29-b.]

Ta'qidlash joizki, bugungi kunda dunyo OAVlarida tarqatilyotgan axborotlarning 8% xolis bo'lsa, 92% manipulyatsiyaga qaratilgandir[13, 104-b.]. Bu o'z navbatida, zamonaviy axborot oqimida foydalilik omilidan ko'ra muayyan daraja tahdidlilikni namoyon etadi.

Axborot hamda uning asosini tashkil etuvchi so'z hukmronlik o'rnatgan bugungi jamiyatda inson ongi va ruhiyati manipulyatsiyaning asosiy qurbonlariga aylanmoqda. "Manipulyatsiya deganda, aksariyat hollarda, yashirin tarzda olib boriladigan va tabiiyki, o'z "qurbonlari"ga ziyon keltiradigan ruhiy ta'sir tushuniladi" [12, 14-b.].

Aytish joizki, XXI asr avlodi kattalarning yo'l-yo'riqlari, pand-nasihatlari, ertaklar, jamoatchilik tarbiyasidan ko'ra ommaviy axborot vositalari orqali olamni anglamoqdalar. Bu haqida "Bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari: xalqaro andozalar va milliy qonunchilik"da "Ommaviy axborot vositalari to'laligicha hamda qisman televidenie va kinomotografiyada pornografiya, giyohvandlik va zo'ravonlik bilan bog'liq materiallarni ko'rsatishni kamaytirishi, zo'ravonlik va

eksploatatsiyani salbiy tasvirlanishini, shuningdek, bolalar, ayollar va shaxsiy munosabatlarning qadr-qimmatini haqoratlaydigan shaklda ko'rsatishni chegaralashi, ayniqsa, ehtiyot bo'lishi va teng xuquqlilik printsiplarida targ'ib etganligi uchun rag'batlantirish lozim" [14, 289-290-b.], deb keltirilgan.

Ayrim tadqiqotchilar "Bizning davrimizda bilimlar asosan ta'lim tizimi orqali emas, balki ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi" [15, 416-b.], kabi fikrlarni ilgari suradilar. Televidenie orqali zo'ravonlikni tomosha qilish agressivlikning kuchayishiga, tomoshabinlarning zo'ravonlikka nisbatan sezgirlik me'yorining ortishiga, ularning ijtimoiy borliq haqidagi noto'g'ri qarashlarining shakllanishiga sabab bo'ladi [18, 39-b.].

Boshqa jihatdan, mazkur hilma-xil kontentlarni shakllantiruvchilar auditoriyasining kengligi, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanilgan holda ma'lumotlar almashinuvi jarayonida til to'siqlarini oson yechim topishi, qolaversa, ma'lumotlarni qo'lga kiritishdagi qulayliklar global tarmoqning nafaqat ma'lumot tarqatish, balki ilm manbai, insonlar dunyoqarashini yuksaltirishning o'ziga xos zamonaviy vositasiga ham aylanib ulgurdi. Aynan shu jarayonda global axborot tarmoqlari bir qator qulayliklar yaratishi bilan bir qatorda, o'ziga xos g'oyaviy tahdid manbai, yot g'oyalar targ'iboti vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Bu holat o'z-o'zidan global tarmoq va zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarni keng jamoatchilik orasida ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlar manbaiga aylanishiga imkon yaratmoqda.

Umumiy holatda internet tarmog'idagi rasmiy va norasmiy saytlar ma'lumotlari bazasi jamoatchilik vakillari fikri namoyon etishi hamda katta hajmdagi internet auditoriyadagi ijtimoiy fikr shakllanishiga muayyan darajada ta'sir o'tkazadi.

XXI asr boshidagi geosiyosiy qarama-qarshiliklar doirasi kengayganligi tasdiqlaydiki, internet tarmog'ida axborot tahdidlari tobora keng miqyos kasb etib bormoqda [8, 321-b.]. Shuning uchun ham internet tarmog'i hozirgi jamiyat uchun axborot xavfsizligiga rahna solayotgan vosita, minbar, salbiy omil sifatida qabul qilinishini ham muayyan darajada asosli deb baholash mumkin.

Xususan, internet bugungi yoshlarning asosiy ma'lumot va axborot manbaidir. Bu omil axborotning yoshlar dunyoqarashini, hayotiy nuqtai-nazari, fuqarolik pozitsiyasini shakllanishida muhim omilga aylanmoqda. Axborotning mazkur, shaxs shakllanishiga ta'siri omilini tadqiq etish va o'rganish bugungi fanning dolzarb masalalaridan biri bo'lib shakllandi.

Ta'kidlash lozimki, jamiyatdagi o'zgarishlarda kommunikativ texnologiyalar taraqqiyoti, ommaviy kommunikatsiyalarning auditoriyaga ta'siri muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham rasmiy va norasmiy kommunikatsiyalarning jamiyat yangi taraqqiyot bosqichidagi o'rni, inson faoliyatiga ta'siri jarayonlari, vujudga kelgan yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarining potentsiali, informatsion texnologiyalar va internet kommunikatsiyalarning yaqin kelajakda ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi o'rnini o'rganish va ilmiy tadqiq etishning dolzarbligini oshirib bormoqda.

Bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Elektron ommaviy axborot vositalarining shakli, iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmat turlari, foydalanuvchilar uchun qulaylik darajasini doimiy ravishda o'zgaruvchanlik xususiyatlari ular faoliyatini tizimli o'rganishda o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Biroq, bugungi kunga qadar bir qator tadqiqotlarda OAV ni, ayniqsa, zamonaviy-internet OAVni, tizimli ravishda jamoatchilik fikrini shakllanishida muhim ahamiyatga egaligi va jamoatchilik fikrini muayyan darajada boshqarilishida muhim rol uynashini hamda zamonaviy OAVlarning omma dunyoqarashini yo'naltirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslangan[19, 23,131, 278-b.].

Bugungi kunga kelib, tabiiyki, OAV – bu keng muloqot[11, 287-b.] shakli bo'lib, uning usul va vositalari izchil takomillashib bormoqda. Zamonaviy-internet ommaviy axborot vositalari o'z rivoji dinamikasiga ko'ra taraqqiyot bilan hamoxangdir. Zamonaviy OAV ning inson hayoti, dunyoqarashi, harakatiga ta'siri kengligi ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasini tadqiq etish, ushbu jarayonning umumlashtirilgan suratini namoyon etish, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini tavsiflash masalalarini ilmiy jihatdan doimiy tadqiq etish, uning taraqqiyotini yangi tendentsiyalarini namoyon etish dolzarb ilmiy muammolar qatoridan joy olgan va ushbu masalalar yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda[6, 89-85-b.].

Bu borada amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda zamonaviy axborot vositalarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri omili yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2021 yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalarida ham shu kabi holat ko'zga tashlanadi. Yoshlarga berilgan "O'zingiz uchun kerakli ma'lumotni qaerdan olasiz?" deb savol berilganda, 47% "Internet saytlaridan" deb javob bergan. Shu bilan birga, so'ralganlarning 23% "Do'st-dugonalar, tanishlardan", 12% "Televizordan", 5% "Shu mavzuga doir kitoblarga, kutubxonadan", 5% "O'qituvchimdan", 3% "Ota-onamdan" deb javob berishgan. Aytish joizki, O'zbekistonda internet tarmog'idan foydalanuvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoqlarga a'zolar soni ham yoshlar hisobiga kundan kunga oshib bormoqda. Shundan kelib chiqib, yoshlarni internet orqali kirib kelayotgan tahdidlardan himoya qilish, ya'ni ularda tegishli immunitetni shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda[17, 11-17-b.].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda elektron OAV va axborot tarqatishning boshqa vositalarini jamiyat rivojining bugungi bosqichida aholi va keng ommaga ma'lumotlarni yetkazish, taqdim etilayotgan axborot vositasida ularning dunyoqarashiga muayyan ta'sir o'tkazish vositalari orasida yetakchi o'rinda ekanligini ta'kidlash o'rindir.

Dunyo taraqqiyot tendentsiyalariga hamoxang rivojlanish, jamiyatda tom ma'noda demokratiya tamoyillarini hukmronligini ta'minlash, demokratik institutlar faoliyatini yanada rivojlantirish, aholi turmushini yanada yaxshilash, odamlarni rozi qilish, bir so'z bilan aytganda "ijtimoiy davlat" kontseptsiyasini amalda joriy etishni[2] asosiy

maqsadlardan biri sifatida belgilanishi O'zbekistonda ham elektron ommaviy axborot vositalarini rasmiy ahamiyat kasb etishiga hamda hozirda jamoatchilik fikrini shakllanishi hamda jamoatchilikka haqqoniy ma'lumotlarni yetkazilishida yetakchilik ahamiyati oshib bormoqda.

Dunyo hamjamiyatida zamonaviy ommaviy axborot vositalarining taraqqiy etishi barobarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashuvi sharoitida ilmiy texnik taraqqiyot bevosita global kompyuter tizimi, global internet tarmog'idagi milliy segment saytlari jadal rivojiga zamin yaratdi. Ushbu jarayon, o'z navbatida, ijtimoiy tizim, uning turli sohalaridagi chuqur islohotlar, innovatsion mazmundagi o'zgarishlar mohiyatan amaliyotda zamonaviy OAV shakllarini aholi turmushida katta o'rin egallashini anglatadi. Qolaversa, ko'plab jamiyatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining hozirgi davrida kommunikatsiya sohasi muhim inqilobiy o'zgarishlarni o'z boshidan kechirmoqda, inson faoliyatida kiber internetning axborot vositasi sifatidagi ijtimoiy ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu jarayonda internet olami kommunikatsiyasi kompyuterlashtirilishi asosiy, yetakchi o'rinni egallamoqda. Globallashuv davrida global internet tarmog'ining takomillashgan axborot almashuv vositasi sifatidagi rasmiy va norasmiy kommunikativ axborot tizimidagi o'rni ham, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etmoqda[8, 321-b.].

2022 yil yakuni holatiga O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 31 mlndan oshdi. Ulardan 29,5 mln nafari mobil internet orqali tarmoqqa ulanadi. Shuningdek, xalqaro internet-kanalga ulanish tezligi so'nggi ikki yilda 2,6 baravarga oshib, 3200 Gbit/s ga yetgani qayd etildi. Respublika bo'yicha mobil aloqa qamrovi darajasi 99 foizga, keng polosali mobil internet qamrovi 98 foizga yetkazilgan[27]. Mazkur ko'rsatgichlar mamlakat aholisining aksariyat qismida zamonaviy ommaviy vositalari ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatiga egaligi va uning barobarida bevosita aholini manipulyativ, hilma-xil mazmundagi keng miqyosdagi axborot ta'sirida bo'lishligi imkoniyatini vujudga keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar jarayonida jamiyatda axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda ommaviy axborot vositalari, matbuot, noshirlik-matbaa va axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning so'z va axborot erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarining ro'yobga chiqishini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, media-bozorda ular uchun teng sharoitlar yaratish, shuningdek, jurnalistlar huquqlarini himoya qilish maqsadida qator tizimli ishlar amalga oshirildi[4]. Bu borada ishlarni xalqaro darajada tashkil etil va rivojlantirish ham e'tibor markazida bo'ldi[24]. Ya'niki, zamonaviy OAV larning inson hayotida qanchalik hayotining ajralmas qismiga aylanib borar ekan, ushbu jihat bu borada davlat siyosatining ham takomillashib borishiga sabab bo'lmoqda.

Axborot va so'z erkinligini ta'minlash, ma'lumotlar ochiqligi borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida aholi, ayniqsa, yoshlar orasida rasmiy axborot bilan yaqindan tanishish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasida salmoqli natijalarga erishildi.

Xususan, 2020 yilda o'zbek milliy axborot segmentida o'tkazilgan o'rganishlar natijasida Telegram ijtimoiy tarmog'ining foydalanuvchilari orasida eng tez ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilayotganligi va ushbu tarmoqdan keng miqyosda foydalanish 2015 yildan so'ng ommalashganligin ko'rishimiz mumkin.

So'z va axborot erkinligi sharoitida[21] rasmiy va norasmiy elektron axborot manbalarini axborot iste'molchilari orasida ommalashuviga sabab bo'ldi. Tadqiqotlar O'zbekiston aholisi orasida asosan Kun.uz, daryo.uz va qalampir.uz kabi elektron veb-saytlarning ommaviyligi namoyon etmoqda. Ushbu elektron veb-saytlarning keng ommalashuvi va katta auditoriyaga ega ekanligini bir qancha omillar:

birinchidan, kun.uz va daryo.uz boshqa elektron nashrlarga nisbatan faoliyatini ertaroq, ya'ni 2015 yildan boshlaganligi va o'sha davrdan boshlab yetarli darajada foydalanuvchilar auditoriyasiga ega ekanligi;

ikkinchidan, ularda xabar va yangiliklar turkumining kengligi va ommabopligi;

uchinchidan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy hamda insonlar turmush tarzi bilan bog'liq tahliliy va tanqidiy materiallarning keng yoritilganligi;

to'rtinchidan, haftalik, oylik yangilik va xabarlarining qisqacha tafsilotlarining berilishi;

beshinchidan, taqdim etilayotgan xabarlarining zamonaviy formatda yetkazilishi ekanligini sabab bo'lgan[23].

Ba'zi holatlarda yangilik va xabarlarining tezkorligi, tanqidiy va muammoli vaziyatlarni yetkazish bo'yicha xorijiy elektron ommaviy axborot vositalari, xususan Ozodlik, bbcuzbek.com aynan O'zbekistondagi yuqorida nomlari zikr etilgan veb-saytlar ma'lumotlaridan foydalanishi va ularning reytingi omma orasida yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Zamonaviy internet ommaviy axborot vositalarining keng foydalanuvchilar orasida ommalashuviga ularda chop etilayotgan yoki taqdim etilayotgan ma'lumotlarning foydalanuvchilarga nozir bo'lishligi jihatiga ham bog'liqdir. Zero, cheklanmagan axborotni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan foydalanuvchi o'ziga manzur bo'lgan axborotni taqdim etuvchi manbalarga ko'proq murojaat qiladi. Ushbu masalani milliy segmentdagi holatini o'rganish maqsadida 2023 yilda eng ommabop internet OAVlar ma'lumotlarida o'rganishlar amalga oshirildi.

O'rganishlarda mazkur vositalarda aholini faol qatlam bo'lgan yoshlar va ularning hayotiy maqsadlarini ifodalashga, ular uchun zarur bo'lgan foydali masalalarga, yoshlarning ijtimoiy va hayotiy muammolariga bag'ishlangan kontentlarning mavjudligi ushbu qatlamni milliy segmentga murojaat qilishlariga sabab bo'ladi.

Ushbu nuqtai-nazardan milliy segmentni o'rganish tadqiqoti ob'ekti sifatida Milliy domenning foydalanuvchilar o'rtasida mashhur bo'lgan "President.uz", "Xs.uz", "Uza.uz",

“Yuz.uz”, “Kun.uz”, “Gazeta.uz”, “Podrobno.uz” va “Daryo.uz” kabi internet-nashrlari kirdi. Mazkur OAVlardagi axborot materiallarining katta qismida Yangi O'zbekiston yoshlari hayotidagi asosiy voqealar yoritib kelinganligi holati ham tadqiq etilgan.

Elektron ommaviy axborot vositalarining media bazasini o'rganish doirasida o'tkazilgan kontent-tahlil mamlakatimizda yosh avlodni yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishga keng jalb etishga qaratilgan kompleks tizimli ishlar olib borilayotganini namoyon etgan.

Tadqiqot natijalarining dalolat berishicha, ko'rsatilgan davr uchun tanlangan internet-nashrlarning kontent-tahlili davomida 298 ta maqola, jumladan, 231 ta axborot mazmunidagi va 67 ta tahliliy maqola e'lon qilingan[25].

Internet makonidagi axborot-tahliliy materiallar shuni ko'rsatadiki, tasniflagichning 11 yo'nalishi bo'yicha eng ko'p maqolalar fan va yoshlar ta'limi (26,4%), yoshlar va siyosat (22,9%), yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (11%) va xizmatda o'sish, ishga joylashish va migratsiya (9,1%) bilan bog'liq[25].

Tasniflagich yo'nalishlari bo'yicha yoshlar mavzusida eng ko'p chop etilgan axborot materiallari soni qiyosiy tahlilining ko'rsatishicha, tasniflagichning yo'nalishi bo'yicha «Jamiyat» sohasiga maqolalarning eng ko'p soni to'g'ri keladi: «Yoshlar, siyosat va davlat organlari» (23,5%); «Yoshlar, fan va ta'lim» (21,0%); «Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash» (16%); «Yoshlar va devitsiya» (14,8%); «Xizmatda o'sish, ishga joylashish va yoshlar o'rtasidagi migratsiya» (11,1%), bu ko'rsatilgan sohada yoshlar masalalaridagi asosiy o'rinlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

«Siyosat» sohasidagi maqolalarning asosiy qismi (55,9%) siyosat va davlat organlari bilan bog'liq tasniflagich yo'nalishiga to'g'ri kelsa-da, «Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash» yo'nalishidagi maqolalar soni ham muhim ko'rsatkichlarni ko'rsatadi (19%).

Ommaviy axborot vositalarida yoshlar va yosh olimlarning ta'lim olishiga bag'ishlangan axborot materiallari asosan tasniflagichning bir yo'nalishi – "Yoshlar, fan va ta'lim" (86,4%) yo'nalishidan ortda qolmoqda. Maqolalarning uncha katta bo'lmagan qismi tasniflagichning quyidagi yo'nalishlariga to'g'ri keladi: "Yoshlar, siyosat va davlat hokimiyati organlari" (5,1%), "Xizmatda o'sish, ishga joylashish va yoshlar o'rtasida migratsiya" (5,1%) va "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" (3,4%)[25].

NATIJALAR

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, zamonaviy internet nashrlarda yoshlar uchun zaruriy bo'lgan ijtimoiy turmush-tarz, ularni o'z-o'zini rivojlanishtirishlari, davlat va nodavlat organlari tomonidan yoshlar kamoloti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ular haq-huquqlarini kafolatlanishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida atroflicha ma'lumotlar berilib borilayotganligi o'z-o'zidan yoshlar hayotida mazkur axborot manbalarini ahamiyati va ta'sirini oshirib boradi.

Boshqa tomondan, global tarmoqda axborotni iste'molchiga yetkazishdagi til tusig'ini bartaraf etib borilishi natijasida nafaqat milliy segment balki xorijiy kontentlar

bilan ham yaqindan tanishish imkonining qulaylashuvi, turli madaniyat va dunyoqarashlar bilan tanishuv imkonini ham vujudga keltirmoqda. Ushbu holatlar o'z o'rnida axborotlar hilma-xilligi muhitini yaratish barobarida, turlicha g'oyalarning ham singib borishi mumkinligi istisno etmaydi.

Biroq, dunyoning geosiyosiy manzarasi shiddat bilan o'zgarayotgan davrda[29] aynan shu sohada milliy segmentning o'rni va ahamiyatini yuqori bo'lishligi muhim holatdir. Zero, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodga milliylik va an'anaviyligimizdan yiroqlashmagan, dunyo hamjamiyati taraqqiyoti tendentsiyalari o'z aksini topgan ma'lumotlarni taqdim etish va shu orqali tahlilsiz va zararli yot g'oyalar ta'siridan muhofazalash borasida natijali tadbir amalga oshirilgan bo'ladi.

2010-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda mobil aloqa vositalaridan ijtimoiy, iqtisodiy zaruriyat uchun foydalanish muttasil ortib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston aholisining 29 millionga yaqini mobil qurilmalardan foydalanadi[26]. Jamiyatda mobil aloqa vositalari rivojlanib borishi natijasida global internet saytlarining mobil versiyalari ko'paymoqda va ijtimoiy tarmoqlar messenjer ko'rinishiga o'tmoqda. Shuningdek, 2010 – 2020-yillar davrida mobil messenjerlar yaratilishi yoshlarni xorijiy ijtimoiy tarmoqlarga qiziqishini oshirgan. Yuqoridagi fikrlar istiqbolda milliy segment saytlarning mobil sahifalari rivojlanib borishidan dalolat bermoqda. Shuning natijasida, O'zbekiston milliy segmentidagi saytlarga foydalanuvchilarning 72,4 foizi aynan mobil dasturlar orqali kirgan[28].


Bu borada «Telegram» messenjeri, «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmog'i va «Facebook» ijtimoiy tarmog'iga a'zo bo'lgan foydalanuvchilar kun sayin ko'paymoqda, ular aholini axborotlar majmuiga jalb etishning zamonaviy usullariga ega. Xususan, ular xizmatidan foydalanuvchilar auditoriyasining kengligi va jadal ishlashining yuqoriligi aholini jalb etmoqda.

Jumladan, bugungi kunda o'zbekistonlik ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarini 98% xorijiy, 2% mahalliy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Bu borada xorijiy ijtimoiy tarmoqlar yuqori ko'rsatkichlarga ega[7, 735-744-b.]. Ta'kidlash lozimki, «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmog'i, «facebook» ko'plab o'zbekistonlik a'zolariga ega. Ushbu kontent tahlillarga ko'ra, foydalanuvchilarni milliy ijtimoiy tarmoqlarga jalb etishning samarali usullari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham milliy ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar soni kam.

Zamonaviy axborot vositalarining rivojlanishi, ma'lumotlar hilma-xilligini shiddat bilan o'sib borishi milliy axborot vositalari oldida rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda rivojlanib borishdek muhim vazifani vujudga keltiradi. Ayniqsa, bu borada milliy zamonaviy OAVlarni xorijiy zamonaviy OAV lar bilan raqobatlashuvi tabiiy bo'lib qolmoqda.

Milliy medialandshaftga plyuralizmning integratsiyalashayotganligini ham OAV soni va turining oshayotganida, ham media tashkilotlar va xizmatlarning o'sishida ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Yuksalish" umummilliy harakati tomonidan e'lon

qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda mamlakatda faoliyat yuritgan OAV soni 2016-yildagiga nisbatan 379 taga ortgan. Quyidagi info-grafikada (rasm-1) esa 1991, 2016 va 2021-yillarda OAV sonining ortib borishi ko'rsatilgan.



1-rasm. 1991, 2016 va 2021 yillarda O'zbekistonda OAV sonining ortib borishi

O'zbekistonda so'nggi besh yilda o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha an'anaviy OAVga nisbatan internet nashrlari peshqadam. Agar 2016 yilda 395 ta internet nashri faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilga 638 tani tashkil etadi. Bundan tashqari, turli davlat tashkilotlarida 584ta matbuot xizmatlarining tashkil etilganligi mamlakatda davlat hokimiyat idoralarining ochiqqligini ta'minlash borasida qiliniyotgan islohotlarni ko'rsatadi[16].

Jamiyatni tobora raqamlashuv sari ildamlab borishi, global tarmoqning insonlar hayoti jabhalariga kirib borishi, zarur ma'lumot manbai sifatida ildamlab ketishi o'z o'rnida axborot erkinligi va shaffofligi, so'z erkinligi va fikrlar hilma-xilligini qonunan kafolatlanishini[1], bu borada takomillashuvni taqozo etdi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat hokimiyatini demokratlashtirish, xalq va OAV bilan to'g'ridan-to'g'ri, shaffof muloqotni yo'lga qo'yish, ularning fuqarolik va jamoatchilik faolligini qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli natijalarga erishildi. Bugungi kunda har qanday jamiyat va davlat ahamiyatiga molik masalani milliy va global darajada jamoatchilik tomonidan ochiq muhokama etilishi, aholi tomonidan internet orqali o'z fikrlarini erkin bildirishi[5] amaldagi holatni ifoda etadi.

Davlat tashkilotlarini faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishi, jamoatchilik tomonidan tegishlilik bo'yicha davlat organlari faoliyatida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar yuzasidan tanqidiy fikrlarni bildirilishi, davlat tashkilotlari matbuot xizmatlari tomonidan bu kabi holatlarda tushuntirish berishlari odatiy holatdir. Shu o'rinda, barcha davlat idoralarida axborot xizmatining tashkil etilishi[3], tashkilotlar ochiqqligini ta'minlanishi aholi va keng jamoatchilikni islohotlarni amalga oshirilishida ishtirokini faollashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

XULOSA

So'nggi yillardagi keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tom ma'noda demokratik institutlar faoliyatini rivojlanishi ko'zatilmoqda. Mazkur institutlar faoliyatining jadallashuvi, shu barobarda, so'z erkinligi, axborot ochiqligi va xalq bilan muloqot tobora kundalik voqe'likka aylanib borishi barobarida aholi orasida faollik, dahldorlik va tashabbuskorlik harakati va tushunchalarini yuksalishini sababchisi bo'lmoqda.

Ayniqsa, ma'lumotlar ochiqligi va elektron ommaviy axborot vositalarining keng tarzda faoliyati aholi, xususan, yoshlarimizni jamiyatda kechayotgan islohotlar, islohotlarni amalga oshirilishi natijasida yoshlarni jamiyatda o'z o'rnilarini topishlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida tezkor axborotga ega bo'lish va ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanishlari rasmiy va norasmiy elektron ommaviy axborot vositalarining bugungi kunda jamiyat hayotini faollashuvi uchun qanchalik ijobiy ahamiyat kasb etayotganligini namoyon etadi.

Vujudga kelgan keng axborot makonidan maqsadli va manfaatli foydalanish yo'lga qo'yish, inson kamoli va uni jamiyatga intensiv integratsiyaga tusqinlik qiluvchi ma'lumotlardan saqlanish maqsadida o'nib-usib kelayotgan avlodni huquqiy savodxonligini yanada oshirish, axborotni manbaiga qarab tasniflash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi ham dolzarbligi oshib bormoqda. Aynan, shu nuqtai nazardan, bugungi yosh avlodni savodxonligini oshirish davr talabidir.

Tadqiqotlar natijalari yoshlarga zamonaviy axborot vositalari – internetning va internet ommaviy axborot vositalari, va ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri kattaligi namoyon etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotiga chuqur kirib borib, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, ko'pchilik yoshlar vakillari uchun real hayotdan ko'ra Internetda muloqot qilish qulayroq. Bu shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini topishida salbiy iz qoldiradi, uni yanada cheklaydi. Ijtimoiy tarmoqlarning hamma uchun qulayligi, tezda axborot almashish mumkinligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z dunyoqarashini namoyon qilishning eng qulay usuli sifatida foydalanuvchi yoshlar orasida uning juda mashhurligi tufayli ta'siri juda yuqori ekani. Hozirgi zamon yoshlarining ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishi, kibersotsiallashtirish tahdidini keltirib chiqarmoqda.

Mazkur holatlar, o'z o'rnida ortqa qaytmas jarayon bo'lib, bu o'z o'rnida ushbu vaziyatlarga moslashuvchanlik asosida rivojlanishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (lex.uz).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>. 20.12.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi №PQ-4366-sonli Qarori. 27.06.2019 y
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4151-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/418885>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabdagi “«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. PF-158-son 11.09.2023. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida (lex.uz)
6. Abduazimov O.U. Sistematischeskiy podxod k «Modeli 4T teorii pressy» // Aktualnye voprosy nauki: mat-ly mejdunar. nauch.-prakt. konf. M., 2013. S. 89–95.
7. Burxanov X.M. Globollashuv sharoitida milliy saytlarning rivojlanish davri va muammolari / Actual problems of the history of Uzbekistan / Aktualnye problemy istorii Uzbekistana. – S. 735-744. Period i problemy razvitiya natsionalnykh saytov v usloviyax globalizatsii | Aktualnye problemy istorii Uzbekistana (inlibrary.uz). izvlecheno ot <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16567>.
8. Burxanov X.M. Internet kommunikatsiyalarining jamoatchilik fikriga va psixologiyasiga ta'siri / Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. – b. 321.
9. Burxonov, X. (2023). Period i problemy razvitiya natsionalnykh saytov v usloviyax globalizatsii. Aktualnye problemy istorii Uzbekistana, 1(1), 735–744. izvlecheno ot <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16567>.
10. Zborovskiy G.E., Shuklina Ye.A. Obrazovanie kak resurs informatsionnogo obshchestva// Sotsiol. issled. 2005. №7. - B 107.
11. Korkonosenko S.G. Osnovy jurnalistiki: uchebnik. M., 2001. – S. 287.
12. Qarshiboeva V. Tomoshabinlar jamiyati: TV va real hayot o'rtasidagi chegara // Tarbiya. – 2010. – 5/33. – B. 14.
13. Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 104.
14. Matkarimova G., Mo'minov A., Tillabaev M., Xamdamova F. Bola huquqlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: JIDU, 2010. – B. 289-290.
15. Моль А. Сotsiodinamika kul'tury: Per. s fr. / Predisl. B. V. Biryukova. Izd. 3-e. – M.: Izdatel'stvo LKI, 2008. – 416 s.

16. Otamurodova M. So'z erkinligi: yangi yondashuvlarning milliy medialandshaftga integratsiyalashuvi. 3RR7nw5pjKOcloAKnF5IJazC9uBhUIJP.pdf (uza.uz).
17. Rasulova Z.A. Yosh avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining o'rni / Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie 2021, 6 (103). – 11-17 betlar.
18. Raximova K., Abdullaeva A. Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi. – Farg'ona, 2006. – B. 39.
19. Saati T. Prinyatie resheniy: Metod analiza ierarxiy. M., 1993. – S. 23,131, 278.
20. Statistika pol'zovateley Interneta v mire i naseleniya za 2023 god. <https://www.internetworldstats.com/stats.htm> (data obraшeniya: 14.05.2023).
21. So'z va matbuot erkinligi – O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi. 3 dekabr 2020. <https://yuz.uz/news/soz-va-matbuot-erkinligi-ozbekiston-siyosatining-ustuvor-yonalishi>.
22. Ubaydullaeva B. O'zbeklarning yosh avlod tarbiyasi borasidagi an'analari va zamonviylik (Etnologik va etnosotsiologik tadqiqotlar asosida). – T.:Yangi nashr, 2010.
23. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti joriy arxivi ma'lumotlari.
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi to'g'risida NIZOM. <https://aoka.uz/uzb/category/9>. (murojaat qilingan sana 1505.2023).
25. O'zbekiston elektron OAVlaridagi maqolalarning “Yoshlar internet-makon ko'zgisida” mavzusidagi kontent tahlili. Yoshlar internet-makon ko'zgisida - IF (ijtimoiyfikr.uz).
26. O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni ma'lum qilindi. <https://kun.uz/news/2022/01/10/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-malum-qilindi>.
27. O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 31 milliondan oshdi. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/15/internet-users/>.
28. O'zbekistonning doimiy aholisi soni ma'lum qilindi. <https://kun.uz/news/2022/01/11/ozbekistonning-doimiy-aholisi-soni-malum-qilindi>.
29. Usmonov N. Markaziy Osiyo xavfsizlik va hamkorlik forumi. / Markaziy Osiyo xavfsizlik va hamkorlik forumi - Xalq so'zi (xs.uz). 13 iyul 2023.



ОБЗОР РАЗЛИЧНЫХ ПОДХОДОВ К УПРАВЛЕНИЮ СРЕДСТВАМИ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ И КОММУНИКАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Mualliflar: Алиакбарова Рушанабону Муродуллаевна¹

Affilyatsiya: Международный университет Нордик¹, Базовый докторант первого курса¹

E-mail: murodullayevna1999@gmail.com¹

DOI: <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.26250299>

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен обзор различных подходов к управлению средствами массовой информации и коммуникации в образовательной сфере на примере ряда стран мира. Цель исследования заключается в анализе и сравнении методов интеграции медиа и коммуникационных технологий в учебный процесс, а также их влияния на качество образования и развитие медиа-грамотности учащихся. В статье рассматриваются инновационные практики в Соединенных Штатах Америки, Финляндии, Южной Корее, Сингапуре. Особое внимание уделяется использованию интерактивных технологий, онлайн-платформ, социальных сетей, радиопрограмм и мобильных приложений в образовательных целях. Кроме того, обсуждаются программы медиа-грамотности, критического мышления и патриотического воспитания, интегрированные в учебные планы различных стран. Результаты исследования показывают, что успешное управление СМИ и коммуникациями в образовании способствует повышению вовлеченности учащихся, развитию их критического мышления и адаптации к современным информационным условиям. Статья может быть полезна для образовательных администраторов, педагогов и исследователей, занимающихся вопросами внедрения медиа и технологий в образовательную практику.

Ключевые слова: традиционный, цифровой, смешанный, проектный подходы, медиаобразование, интеграция, образовательный процесс, интерактивное обучение

ВВЕДЕНИЕ

Не секрет, что управление средствами массовой информации и коммуникацией в системе образования играет ключевую роль в формировании информационной среды, в которой осуществляется образовательный процесс.

Процесс образования – это не просто получение знаний, умений и навыков, а сложный и многогранный путь, на который влияют многочисленные факторы. Одним из ключевых аспектов, определяющих качество и эффективность

образования, является доступ к разнообразным источникам информации. Средства массовой информации, такие как новостные и аналитические материалы, играют важную роль в этом процессе, предоставляя актуальные данные и способствуя формированию критического мышления. Помимо традиционных образовательных ресурсов, именно информация из СМИ позволяет учащимся быть в курсе мировых событий, анализировать их и применять полученные знания на практике, что, в конечном итоге, обогащает образовательный процесс и делает его более динамичным и актуальным.

Кроме того, еще одна ключевая роль СМИ в развитии образования заключается в том, что именно они помогают узнавать культуры других национальностей, взгляды, этнические и социально-экономические корни, чтобы иметь возможность оперативно общаться и работать друг с другом.

МЕТОДОЛОГИЯ

Изначально создание различных видов СМИ было направлено на обеспечение развлечений для масс. Радио, телевидение, кинотеатры и журналы тратят большую часть своих ресурсов, направляя их на развлекательные источники и программы. Люди слушают радиопередачи, смотрят телешоу, фильмы и другие программы, чтобы развлечь себя и получить знания. В связи с увеличением численности населения и развитием образа жизни спрос на развлечения растет. Журналы, газеты и статьи также предоставляют знания и развлечения для людей, которые в основном получают удовольствие от чтения.

Существуют различные подходы к данному управлению, которые зависят от целей, задач и условий конкретной образовательной системы. В первую очередь, это **традиционный подход**. Что включает в себя такой метод. Он основывается на использовании печатных материалов. Это могут быть учебники, газеты, журналы. В традиционном подходе лекции и семинары являются основными формами передачи информации, а также ограниченное использование цифровых технологий и мультимедийных средств. Однако учитывая, что у всего есть свои преимущества, традиционный подход является проверенным и надежным методом обучения, который на протяжении многих веков применяется в разных точках мира. Но вместе с тем, традиционный подход ограничивает возможности для интерактивного обучения, что способствует снижению желания учащихся учиться, работать над собой. Кроме того, современное поколение привыкло к цифровым технологиям: традиционные методы обучения менее привлекательны для учащихся.

Второй подход в обучении – это цифровой подход, который характеризуется активным использованием цифровых образовательных ресурсов, применением образовательных платформ и систем управления обучением, а также вовлечением студентов через интерактивные и мультимедийные материалы.

Благодаря данному подходу у учащихся появляется доступ к разнообразным и актуальным учебным материалам, возможность дистанционного обучения и гибкого расписания, а также повышается доступ мотивации и вовлеченности студентов. Недостатками в применении данного подхода на мой взгляд является соответствующая необходимость в инфраструктуре и технической поддержке, требования к цифровой грамотности преподавателей и студентов, а также имеются риски, которые связаны с кибербезопасностью и конфиденциальностью данных.

И наконец, **третий подход** – смешанный, «Blended Learning». Особенность данного метода состоит в том, что он сочетает в себе как традиционные, так и цифровые методы обучения. В данном подходе применяются интерактивные форматы, такие как вебинары, онлайн-дискуссии наряду с очными занятиями, а также имеется возможность использования индивидуальных образовательных траекторий. Что дает нам «blended learning»? Главным его преимуществом является баланс между личным взаимодействием и использованием современных технологий. Говоря простыми словами, преподаватель знает, где нужно применять собственный метод объяснения, а где применять инновацию. К тому же, смешанный подход повышает эффективность обучения за счет разнообразия методов. Сегодня учащимся становится все труднее слушать преподавателя на уроках более нескольких минут, так как они быстро начинают скучать из-за монотонного голоса.

АНАЛИЗЫ И ОБСУЖДЕНИЯ

Немного проанализируем эффективные подходы средств массовой информации и коммуникации в различных странах мира. К примеру, Финляндия известна своими инновационными подходами в образовании. В частности, здесь интеграция медиаграмотности в школьные программы, начинается с начальной школы. Учащиеся изучают, как анализировать и критически оценивать информацию из различных источников. Именно поэтому у детей развивается способность анализировать. Также в Финляндии ученики создают собственные медиапроекты, такие как видеоролики и подкасты, что способствует развитию творческих навыков и критического мышления. С малых лет ребята вовлечены в творческий процесс, полученные теоретические знания применимы и на практике.

В ещё одной развитой стране, как Сингапур акцент делается на интеграции медиаобразования в учебный процесс. К примеру, FutureSchoolsSingapore¹¹ – это инициатива, направленная на использование технологий для улучшения образовательного опыта. Школы оснащены современными средствами коммуникации и медиа, что способствует интерактивному обучению. Здесь

¹¹ <https://emprovedu.wordpress.com/future-schools/>

учебные программы включают обучение критическому анализу новостей и информации из социальных сетей, что помогает студентам развивать навыки медиаграмотности.

А вот в Австралии широко применяются онлайн-коммуникации и социальные медиа в образовательных целях. В стране существует платформа под названием «Digital Technologies Hub¹²», которая предоставляет ресурсы и учебные материалы для развития цифровых навыков учащихся и преподавателей.

В Южной Корее есть национальная образовательная вещательная система (Educational Broadcasting System¹³), в которой демонстрируются разнообразные образовательные программы по телевидению и интернету.

Таким образом, приходим к выводу, что современные средства массовой информации и коммуникации, включая развитие сети Интернет, являются мощным двигателем развития и раскрытия творческого потенциала личности. Доступность Интернета для широкой аудитории открывает возможности для обширной коммуникации, включая решение вопросов образовательной среды. Установление новых общественных связей и более динамичное развитие общества – это те возможности, которые предоставляет нам всемирная паутина. Особенно важна роль СМИ в патриотическом воспитании подростков и молодежи. Для полноценной реализации этого компонента в системе образования необходимо внедрять медиаобразование в школьные программы.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Для достижения качественных результатов в образовательной среде следует объединить усилия специалистов в области образования, медиа, а также учащихся и родителей. Это позволит эффективно интегрировать масс-медиа в систему образования и воспитания. Активное использование материалов СМИ и Интернета в учебном процессе стало современной реальностью. Необходимо не только использовать свободные источники информации, но и обучать подходам к их критическому анализу и использованию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Внедрение элементов медиаобразования может осуществляться через организацию на базе школ дискуссионных и кино клубов, радиостанций, школьного телевидения и печатных изданий. Это позволит учащимся развивать навыки критического мышления, творческого подхода и социальной ответственности, а также адаптироваться к современным информационным условиям и быть активными участниками общественных процессов.

¹² <https://www.digitaltechnologieshub.edu.au>

¹³ <https://global.ebs.co.kr/global/main/index>

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Толкачёв Е.А. ВЛИЯНИЕ СМИ НА ПРОЦЕСС ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В МОЛОДЕЖНОЙ СРЕДЕ СРЕДНЕГО ПОЛНОГО ОБЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ // Вестник магистратуры. 2018. №1-3 (76). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-smi-na-protsess-obrazovaniya-i-vozpitaniya-v-molodezhnoy-srede-srednego-polnogo-obshchego-obrazovaniya>
2. Головин Ю.А. Современные тенденции в сфере медиа. 2022. No1. С. 20–24. DOI: <https://www.doi.org/10.17805/trudy.2022.1.324>
3. Головин Ю.А., Коханая О.Е. (2020) Формирование нового медиапространства в эпоху социальных и технологических трансформаций // Челябинский гу- манитарий. No 2 (51). 114 с. С. 81-88.





V SHO'BA:

INNOVATSION
IQTISODIYOT VA
YOSHLAR:

O'ZBEKISTONNING
KELAJAK STRATEGIYALARI



O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.

Mualliflar: Ergashev Qandiyor Xorun o'g'li¹, Yusupov Musurmon Maxmud o'g'li²

Affilyatsiya: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti^{1,2}

PhD, Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi¹

Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi²

E-mail: eisenmannyusupov@gmail.com²

ORCID: orcid.org/0000-0001-7494-5988¹, orcid.org/0009-0002-8835-0525²

DOI: <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.26095216>

ANOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son Qarorining mazmun-mohiyati, O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirishni rag'batlantirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha energiya samaradorligini oshirishda yangi texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ustuvor yo'nalishlari va modellari, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: "Yashil iqtisodiyot", "Innovatsion iqtisodiyot", UNEP, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi

KIRISH

Bugungi kunga kelib iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va insoniyatni yer-usti hamda yer-osti tabiiy resurslaridan samarasiz foydalanish bilan bog'liq global muammolar e'tiborga olinishi lozim.

Barqaror rivojlanish, atrof-muhit va ekologiyani muhofaza qilish sohasida yangi formatdagi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, muammolarni hal qilishda ilg'or innovatsion texnologik yondashuvlarni joriy etish kerak [1].

Mustaqillik va islohotlarning o'tgan o'ttiz yili ichida O'zbekiston Orolbo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmonchilik choralari tufayli iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Atrof-muhit bo'yicha amaldagi milliy rejalar hamda maqsadlar past uglerodli va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning markaziy elementlari bo'lib qolmoqda. Ammo sug'orish va ichimlik suvi tanqisligi, ishonchli elektr

ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamon mavjud, bunga so'nggi paytlarda yuz bergan keng ko'lamlı elektr uzilishlari, misli ko'rilmagan qum va chang bo'ronlari hamda kuchli yog'ingarchilikdan keying suv toshqinlari dalil bo'la oladi. Odamlar, jamoalar, atrof-muhit va infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ushbu muammolar O'zbekistonning "yashil" kelajagini ta'minlash uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini eslatib turadi [4].

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ekologiya sohasi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, biologik xilma-xillikni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish va qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish bilan bog'liq ishlar yo'nalishlarida konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015 yil 12 dekabr) majburiyatlari bajarilishini ta'minlash, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish, "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning innovatsion moliyaviy vositalarni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori imzoladi.

Iqtisodiy adabiyotda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi ilk marotaba 1989 yilda qo'llanilganligiga qaramasdan uning mazmuni hozirga qadar turlicha talqin etiladi.

Ayrim manbalarda "yashil iqtisodiyot" mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlari sifatida talqin qilinsa, ba'zi adabiyotlarda "yashil iqtisodiyot" tabiatga ko'maklashuvchi va naf keltiruvchi ilg'or texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, boshqa bir tadqiqotlarda esa "yashil iqtisodiyot" – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi UNEP (Birlashgan Millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik xavflar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir.

Ushbu fikrni rus olimlari T. V. Zaxarova, V. V. Volodkova A. A. Trofimchuklar ham ma'qullashadilar.

L.G. Melnik, I.N. Sotnik, I.M. Burlakova kabi ilmiy tadqiqotchilar fikr-mulohazalarida yashil iqtisodiyotni iqtisodiyotning yangi turi sifatida konseptual jihatdan ajratib ko'rsatish zarurligiga qaratilgan, bunda yashil taraqqiyot jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qiladi va hukumat, iqtisodiyot va jamiyatning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi deb ta'kidlaydilar.


Shuningdek, o'zbek olimlari Isadjonov.A.A, Mustafaqulov.Y.B yashil iqtisodiyotni XXI asrning yangi ijtimoiy-ekologik hodisasi deb hisoblaydi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, kam uglerodli energetika, ifloslanish darajasini pasaytirish, tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi oqibatlariga tayyor turishga asoslangan iqtisodiy o'sish modeliga intiladi. Rivojlanish bo'yicha 2019-2030 yillar davrida "yashil" o'tish strategiyasini amalga oshirish va 2050-yilgacha iqtisodiyotni karbonsizlash bo'yicha uzoq muddatli istiqbolni ishlab chiqish "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil" o'sishning kelishilgan ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o Aholini muhofaza qilish, zarar ko'rgan hududlar, aholi guruhlari va iqtisodiyot tarmoqlariga moliyaviy va boshqa favqulodda yordamlar ko'rsatish orqali tabiiy ofatlarga tayyorlik va iqlim o'zgarishiga chidamlilik;
- o Bozor islohotlari, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi inklyuziv siyosat, xususiy sektorni tegishli jarayonlarga jalb qilish orqali tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
- o Chiqindilarni kamaytirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish orqali sanoat va iqtisodiyotni "yashil" rivojlantirish;
- o Iqtisodiyot tarmoqlarining "yashil" o'tishini qo'llab-quvvatlash uchun "yashil" investitsiyalar va innovatsiyalar;
- o barqaror va inklyuziv urbanizatsiya hamda "yashil" iqtisodiyotga o'tishdan eng ko'p zarar ko'rgan aholi va hududlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan kompetentsiyalarni rivojlantirish va "yashil" ish o'rinlarini yaratish.
- o "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish[2].

Hozirgi kunda Respublikamiz viloyatlari markazlarida va poytaxtda ekologik vaziyat yomonlashayotgani, havo ifloslanishi, jamoat transportining past darajada rivojlangani tufayli ko'chalarda avtotransportlar tirbandligi ko'payib borayotgani keng muhokama sabab bo'lmoqda (1-rasm)[7].



1-rasm. O'zbekiston, Toshkent shahrida havo sifati ma'lumotlari 11-aprel 2024-yil bo'yicha.

Bunda eng avvalo ekologik barqarorlikni ta'minlash, havoga chiqayotgan maishiy chiqindilarni kamaytirish, jamoat transporti tizimini ham sifat, ham son jihatdan yaxshilash, yo'llarda ustuvorlikni mashinalarga emas, eng avvalo piyodalarga, undan so'ng jamoat transportiga berishga qaratilgan infratuzilmani yaratish va shu kabi bir qator o'zgarishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Ekologik holatni yaxshilash va aholi salomatligini asrab-avaylash maqsadida ayrim keskin qarorlarni qabul qilish talab etiladi. Shu sababli mazkur qarorlar kelgusida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi uchun ilmiy tadqiqotlar hamda tahlillarga asoslangan bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son Farmoni hamda "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 31 maydagi PQ-171-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda transport vositalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini, shu jumladan, atmosfera havosiga zararli tashlamalar hajmini kamaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror e'lon qilindi[3]. Unga ko'ra, transport vositalarining normativlarga mosligi darajasini aniqlash, natijasi bo'yicha ularni ekologik toifalarga ajratib borish, ekologik stikerlarning na'munalari va himoya elementlarini belgilash hamda ekologik stikerlarni berish, shuningdek, transport vositalaridan tegishli ekologik zonalar hududida foydalanishni cheklash yoki taqiqlash mehanizmlarini joriy etish belgilangan.

Mamlakatimizning “Yashil” iqtisodiyotga o'tishda zarur maqsad va vazifalari qatoriga iqtisodiyotda energiya samaradorligiga erishish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kiradi. Belgilangan ushbu maqsadli rejalarga joriy texnologiyalarni modernizatsiya qilish hamda moliyaviy mexanizmlarni tizimli rivojlantirish orqali erishiladi[6].

XULOSA

O'zbekistonning imkoniyatlari orasida yashil loyihalar uchun xalqaro investitsiyalardan foydalanish, iqlim o'zgarishlari bo'yicha xalqaro tashabbuslarda ishtirok etish va barqaror rivojlanish bo'yicha mintaqaviy yetakchiga aylanish kiradi. O'zbekiston yashil iqtisodiyotni qo'llash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga ekologik muammolarni hal qilishi mumkin.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yanada barqaror va farovon kelajakka erishish yo'lidagi hal qiluvchi qadamdir. Mamlakatning qayta tiklanadigan energiya manbalari, barqaror qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish va bioxilma-xillikni saqlashni o'z ichiga olgan barqarorlikni ta'minlashga ko'p qirrali yondashuvi ekologik muammolarni hal etishga intilayotganini ko'rsatadi. Muammolar mavjud bo'lsa-da, O'zbekistonning xalqaro hamkorlik salohiyati va boy tabiiy resurslari muvaffaqiyatli yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Hukumatning ushbu tashabbuslarga doimiy sodiqligi barqaror va ekologik toza O'zbekistonni yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son. //lex.uz/docs/-4539502
2. “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda “Yashil” o'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C.”
3. Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.03.2024 yildagi 166-son. <https://lex.uz/pdfs/6858809>
4. Mustafaqulov, Y. B., Todjimamatova, M. E., Berdieva, A. G. qizi, Nurmatova, H. A., & Egamberdieva, O. A. qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA “YASHIL” IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10), 90–96. https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a17

5. Исаджанов, А. (2020). “ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ”: ХУСУСИЯТЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. Iqtisodiyot Va ta'lim, (1), 12–18. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss1/a14
6. Yashil iqtisodiyot: Darslik. /A.V.Vaxabov, Sh.X.Hajibakiyev va boshqalar. –Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b.
7. <https://www.iqair.com/unep>
8. Худанов У., Охундаев Б. и Эргашев К. (2015). Химия и экология коллагеновых отходов. НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД , 30.





SAVDODA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI TUSHUNISH

Mualliflar: Mahmudova E'zoza Rustam qizi ¹

Affilyatsiya: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ¹, KB-61 guruh talabasi ¹

E-mail: ezozarustamovna7@gmail.com ¹

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-5793-4142> ¹

DOI: <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.26114611.v3>

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada savdoda qo'llaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati, turlari va ulardan foydalanishning afzalligi hamda kamchiliklari o'rganilgan. O'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy bozor, qimmatli qog'ozlar bozori, savdo, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yetakchi ko'rsatkichlar

KIRISH

Iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum bir mamlakat yoki mintaqaning turli iqtisodiy faoliyatini ifodalaydi. Ular korxonaning joriy faoliyati, shuningdek, butun iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

ASOSIY QISM

Fikrimizcha, birinchi navbatda ko'rsatkichlar biznes sikliga ko'ra qanday tasniflanishini ko'rib chiqishimiz katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, biznes sikli zamonaviy iqtisodiyotda juda muhim tushuncha hisoblanadi. Chunki, uning har bir siklda iqtisodiy tebranishlar ko'tarilishi yoki tushishi kuzatiladi. Masalan, ketma-ket ikki chorakda yalpi ichki mahsulotning salbiy o'sishiga olib keladigan iqtisodiy faoliyatning qisqarishi retsessiya deb hisoblanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar odatda bir necha jihatlariga ko'ra tasniflanadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy turlari bo'lib, yetakchi, mos keladigan va orqada qoladigan ko'rsatkichlar hisoblanadi. (1-rasm)



1-rasm. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy turlari¹

Iqtisodiy faoliyatning kelajakdagi o'zgarishlarini bashorat qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar yetakchi ko'rsatkichlar deb ataladi. Yetakchi ko'rsatkichlar odatda iqtisodiyotdan oldin o'zgarib turadigan ko'rsatkichlardir. Ya'ni, ular iqtisodiyotda vujudga keladigan kelajakdagi o'zgarishlar, masalan, biznes sikli fazasining o'zgarishi haqida signal bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy faoliyatni bashorat qilish uchun foydalaniladi. Iqtisodiyot retsessiyadan chiqayotgan yoki inqiroz bosqichiga yaqinlashayotganda bu ayniqsa muhimdir.

Investorlar ko'proq yetakchi ko'rsatkichlardan foydalanishadi. Chunki, yetakchi ko'rsatkichlar keng iqtisodiy ma'lumotlar asosida tayyorlanadi. Savdoda investorlar uchun kelajakdagi foiz stavkalari, aktsiya yoki obligatsiyalar dividendini, ularning samaradorligini qanday belgilanishi mumkinligini bashorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy faoliyatning o'zgarishi bilan bir vaqtda o'zgarib turadigan ko'rsatkichlar mos keladigan ko'rsatkichlar (ba'zi hollarda tasodifiy ko'rsatkichlar deb ham yuritiladi) hisoblanadi. Bir-biriga mos keladigan ko'rsatkichlar iqtisodiyotning hozirgi holatini ko'rsatadi va iqtisodiy tendentsiyalar (YAIM, bandlik darajasi va boshqalar) bilan bir vaqtda o'zgaradi.

YAIM, bandlik darajasi va chakana savdo kabi tarmoq va soha ma'lumotlarini o'z ichiga olgan mos keladigan ko'rsatkichlar, muayyan iqtisodiy faoliyatlar sodir bo'lganda kuzatiladi. Ushbu ko'rsatkichlar sinfi ma'lum bir hudud yoki mintaqaning faolligini ko'rsatadi. Ko'pgina siyosatchilar va iqtisodchilar ushbu real vaqt rejimidagi ma'lumotlarni kuzatib borishadi va bu ularga ongli qarorlar qabul qilish uchun kechiktirmasdan real ma'lumotlardan foydalanish imkonini yaratadi.

Savdoda mos keladigan ko'rsatkichlar investorlar uchun kamroq foydali hisoblanadi, chunki bu ko'rsatkich investorlarga faqatgina hozirgi paytdagi vaziyat haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun mazkur ko'rsatkichlar joriy iqtisodiy sharoitlar (ya'ni, yalpi ichki mahsulotning pasayishi) kelajakdagi davrlarga qanday ta'sir qilishini to'g'ri talqin qila oladiganlar uchungina foydali hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyatda o'zgarishlar sodir bo'lganligini tasdiqlovchi ko'rsatkichlar esa, orqada qolgan ko'rsatkichlardir. Kechiktirilgan yoki orqada qolgan ko'rsatkichlar o'zida oldin sodir bo'lib o'tgan iqtisodiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Ular narxlarning o'tmishdagi

¹ Rasm mavzu yuzasidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

o'zgarishiga asoslanadi va ma'lum bir bozor, iqtisodiyot yoki aktivning tarixiy ko'rsatkichlari haqida tushuncha beradi. Ushbu ko'rsatkichlar avval ishlab chiqilgan bashoratlarning ishonchligini tasdiqlash uchun ishlatilishi mumkin. Kechiktirilgan yoki orqada qolgan ko'rsatkichlar jumlasiga, mahsulot hamda xizmatlarning sotilish hajmi, inflyatsiya indeksi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritishimiz mumkin.

Garchi tasdiqlovchi yoki orqada qolgan ko'rsatkichlar hali ham ko'plab hukumatlar va muassasalar tomonidan qo'llanilsa-da, ular hozirgi kunda savdoda investorlarga iqtisodga oid noto'g'ri taxminlarni berishi tufayli noto'g'ri qarorlar qabul qilish xavfini tug'diradi. Hukumatlar tomonidan e'lon qilingan iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'pincha qat'iy belgilangan barqaror o'lchov shakliga ega bo'lib, ko'pincha bepul va ochiq tarzda e'lon qilinadi. Bu, investorlarga iqtisodiy ko'rsatkichlarning qanday hisoblanganligini va shaffoqligini ta'minlab beradi.

1-jadval

Savdoda iqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy va salbiy tomonlari ²

N ^o	Iqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy tomonlari	Iqtisodiy ko'rsatkichlarning salbiy tomonlari
1	Mavjud ma'lumotlarga asoslanib, kelajakdagi moliyaviy xolatni aniq bashorat qilishi mumkin	Kutilmagan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot bo'lmaganligi uchun kelajakni aniq bashorat qila olmasligi mumkin.
2	Iqtisodiy ko'rsatkichlarning ko'pincha ommaviy axborotlarda e'lon qilinishi	Iqtisodiy ko'rsatkichlarning ko'pgina taxminlarga tayanishi, natijani o'zgartirishi mumkin
3	Xuddi shu jarayonni qayta-qayta hisoblash mumkin (Iqtisodiy ko'rsatkichlar hukumatlar tomonidan chiqarilganda)	Iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lumotlarini talqin qilishdagi chalkashliklash natijaga salbiy ta'sir qilishi mumkin
4	Ruxsat etilgan, bashorat qilinadigan format(shakl)da chiqarilishi mumkin	Natijalarni talqin qilish va tushunishda tajribanin yetishmasligi

Har qanday iqtisodiy kategoriyaning o'ziga xos xususitlari sifatida odatda uning salbiy va ijobiy jixatlar solishtiriladi. (1-jadval). Iqtisodiy ko'rsatkichlarning salbiy tomonlari sifatida, hech bo'lmaganda yetakchi yoki mos keluvchan ko'rsatkichlarning ma'lum darajadagi bashoratga tayanishi hisoblanadi. Yetakchi ko'rsatkichlar kelajakka bashoratlar bo'lsa-da, hatto mos keluvchan ko'rsatkichlar ham bir oz taxminlarga tayanishi mumkin. Shu sababli, iqtisodiy ko'rsatkichlar har doim ham kelajakni to'g'ri bashorat qila olmaydi va tavsiya etilgan chora-tadbirlar kutilgandek natija bo'lmasligi mumkin.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar juda murakkab bo'lishi va uni talqin qilishda xatolik, va chalkashliklarni keltirib chiqishi mumkin. Masalan, ishsizlikni o'z ichiga olgan barcha o'zgaruvchilarni ko'rib chiqsak, makroiqtisodiy sharoitdan tortib dehqonchilik ishlariga

² 1-jadval mavzu yuzasidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

ta'sir qiluvchi ob-havo sharoitlarigacha, nima sodir bo'lishini aniq bashorat qilishni qiyinlashtiradigan ma'lum bir ko'rsatkichni boshqaradigan juda ko'p omillar inobatga olinishi kerak.

Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlarni sharhlashning biroz ochiqligi, Inflyatsiya 4,6% dan 4,5% gacha tushgan misolni ko'rib chiqsak, bu yaxshi o'zgarish deb hisoblanadimi yoki pasayish kattaroq bo'lishi kerakmi? Iqtisodiyot va siyosatchilar ko'pincha iqtisodiy omillarga mos yondashuv haqida bahslashadilar. Ma'lumotlar aniq bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uni sharhlash usuli ushbu ko'rsatkichlarni baholashning turli usullariga olib kelishi mumkin.

Mazkur holatlarni moliyaviy bozorlar misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Moliyaviy bozor (Qimmatli qog'ozlar bozori), umuman olganda, har qanday mamlakat iqtisodiyoti kabi, statik emas. U ham o'sish va pasayish davrlarini boshidan kechiradi, ular birgalikda iqtisodiy sikllarni tashkil etadi. Bunday tebranishlar turli moliyaviy vositalarning global tendentsiyalariga ta'sir qiladi. Biroq, o'sish yoki pasayish davrlarining davomiyligi turlichadir. Shuning uchun siklning hozirgi bosqichini yoki undagi o'zgarishlarni paydo bo'lgan tendentsiyasini aniqlash uchun turli xil iqtisodiy ko'rsatkichlardan oqilona foydalana olish kerak.

Afsuski, savdoda treyderlar uchun iqtisodiy faoliyatning kelajakdagi butun darajasini muvaffaqiyatli bashorat qila oladigan, jumladan, valyuta kurslarining o'zgarishini bevosita ko'rsatadigan yagona yetakchi iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami mavjud emas.

Xalqaro amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan yetakchi iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bu - (PMI-«Purchasing Managers Index»), ya'ni "Ishbilarmonlik faolligi indeksi"dir. U mamlakat iqtisodiyotini baholash va bashorat qilishda keng qo'llaniladigan muxim yetakchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ishbilarmonlik faolligi indeksi ikkita asosiy tarmoq - ishlab chiqarish va xizmatlar soxasi uchun teng ahamiyatga ega hisoblanadi.

Odatda, PMI indeksi yangiliklari yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, bandlik va boshqalar kabi boshqa indekslardan oldin nashr etiladi. Indeks tahlilidan foydalanib iqtisodiyotdagi rivojlanish yoki pasayish tendentsiyalarning rivojlanish holatini bashorat qilish mumkin.

Barcha davlatlar qatori O'zbekistonda ham Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan mamlaktimizning ish bilarmonlik faolligi indeksi doimiy taxlil qilib boriladi va natijalari e'lon qilinadi. (2-rasm)

O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 5,8 foizga o'sgan, bu o'tgan yilning shu davridagi o'sish sur'atlaridan (6,2%) bir oz kamroqni tashkil etdi.³

O'zbekistonda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi 2023-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha iqtisodiyotni rivojlanish vektori doirasida rejalashtirilgan ijobiy o'sish

³ <https://review.uz/oz/post/infografika-razvitie-ekonomiki-uzbekistana-v-yanvare-sentyabre-2023-g>

tendentsiyasini davom ettirganligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, investitsion faollikning o'sishi ichki va tashqi muammolarni yengishga yordam beradi. Bundan tashqari inflyatsiyaning pasayishi tendentsiyasi davom etmoqda, bu esa iqtisodiy muhitni barqarorlashtirishga olib keladi deb hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot ⁴

Shuningdek, qo'shimcha xatarlar milliy valyuta kursining o'zgaruvchanligi va byudjet taqchilligining oshishi natijasida yuzaga keladi deb bashorat qilinib, O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari bo'lgan mamlakatlarda qulay iqtisodiy muhit shakllanganligini ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, investorlar tomonidan savdodagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan kelajakdagi moliyaviy xolatni bashorat qilish uchun ma'lumotlar bazasi sifatida foydalaniladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'ri tahlil qilinganda, investorlar muvaffaqiyatli savdo qilish yoki kelajakdagi bozor sharoitlarini to'g'ri baholash uchun imkoniyatlarini rejalatirish mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, savdoda iqtisodiy ko'rsatkichlar muxim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga, har bir investor o'zining yaxshi tushunadigan iqtisodiy ko'rsatkichidan foydalanishi kerak. Chunki, iqtisodiy ko'rsatkichlarni toifalarga yoki guruhlariga bo'lish, investorlarga oy va yilning ma'lum vaqtlarida ma'lum ma'lumotlar asosida mablag'larini aktsiya va obligatsiyalarga joylashtirishni rejalashtirish imkonini beruvchi maxsus strategiyani ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

⁴ <https://review.uz/oz/post/infografika-razvitie-ekonomiki-uzbekistana-v-yanvare-sentyabre-2023-g>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" gi (yangi tahriri) Qonuni. O'RQ-387-son 2015 yil 3 iyun. «Xalq so'zi» gazetasi 2015 yil 4 iyundagi 111 (6294)-soni.
2. Ричард Ямароне. Основные экономические индикаторы. Учебное пособие. <https://xn--2-9sb0d.xn--plai/osnovnye-ekonomicheskie-indikatory-uchebnoe-posobie-2452425/read/part-3>
3. Экономические индикаторы, которые должны учитывать трейдеры. <https://traderblog.net/jekonomicheskie-indikatory/>
4. <https://fin-plan.org/blog/investitsii/indeksy-delovoy-aktivnosti-pmi/>





asr-conference.com